

G'AFUR G'ULOM IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR USTUNLIGI

Ramazonova Sevinch Elbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi

Ramazonov Nodir

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PHD), dotsent.



Men esimni taniganimdan beri ne-ne ulug' iste'dod sohiblarini kormadim. Lekin men bilgan o'zbek shoir va yozuvchilari orasida iste'dod bobida Cho'lpon bilan G'afur G'ulomga bas kela oladigan boshqa birorta qalam sohibi bo'lmasa kerak.

(Abdulla Qahhor)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mashhur yozuvchi o'zbek xalqining sevimli yozuvchisi, umrini adabiyotga bag'ishlagan adib G'afur G'ulom ijodining nazariy asosi yoritilgan. Shuningdek yozuvchining hayot yo'li, ijodi, ijodining asosiy mazmun-mohiyati haqida bat afsil ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Umuminsoniy g'oyalar, badiiy adabiyot, insonparvarlik, ilm-ma'rifat, hajviy ijod, adabiy meros.

KIRISH

Milliy adabiyotimiz vakillari o'z so'zi bilan millat taraqqiyotining, ma'nnaviyatining oshirilishiga xizmat qilib kelishgan. Shulardan o'zbek adabiyotining yirik va mashhur namoyondalaridan biri G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahri Qo'rg'ontegi mahallasida tavallud topdi. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan ayrılgan shoir avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Hayot qiyinchiliklari sabab G'afur G'ulom ko'plab kasblarda o'zini

sinab ko'rib, bir qancha lavozimlarda ishladi va so'ngida pedagogik bilim olib, ilm yo'lida o'z faoliyatini davom ettirdi. Adib qalamiga mansub "Shun bola", "Yodgor", "Netay", qissalar, shuningdek hikoyalarida tasvirlangan voqealar bilan tanishar ekanmiz, o'sha davr ijtimoiy tuzumida avj olgan nohaqliklar, qonun ustuvorligining ta'minlanmaganligiyu uning salbiy oqibatlari, huquq organlari tomonidan xalqqa yetkazilgan jabr-zulm birma bir ko'z o'ngimizda gavdalananadi. Ijodkor barcha ijodida o'sha davr ijtimoiy holatini oolib berilganligini ko'rshimiz mumkin. Ammo G'afur G'ulom shunday zulmlarga qaramasdan xalqni, millatni ilmga va ma'rifatga chorladi.

ASOSIY QISM

Adibning ijodida rang-barang – qo'shiqlar, she'rlar, dostonlar, hikoyalar, qissalar, qasidalarini uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari G'afur G'ulom xajviy yo'nalishda ham barakali ijod qildi. Bu borada Said Ahmad ham shunday yozgan: "Aslida meni xavj yo'liga G'afur G'ulom boshlab kirgan.¹ Adib ixcham kulgili hikoyalarning juda yaxshi namunalarini yaratgan va xalqimizga birdek manzur bo'lgan. Satirik obrazlarini yaratishda so'z o'yinlari, humoristik mubolog'adan mukammal foydalanganar.

She'rning mavzusi, ezgu tilak hamma vaqt ham umumboqiylikka olib boravermaydi, buning uchun umuminsoniy g'oyaviy niyat va orzu-istak go'zal va badiiy shaklda mahorat bilan yoritilishi muhim. Ushbu mahorat egasi G'afur G'ulom umri davomida ko'plab she'rlar, dostonlar yozdi va ularda yaxshlik, do'stlik, ezgulik, birdamlikni ulug'ladi. Urush davrida shoир bor haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotga xalqqa qaratdi, muqarrar g'alaba shukuhi ila boyitilgan she'rlar yaratdi. Shoир "Alisher", "Qish", "Sog'inish", "Vaqt", "Kuzatish" kabi she'rlar, maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga undadi.

Adibning "Alisher" she'rini tahlil qilar ekanmiz, bu she'rda G'afur G'ulom Alisher Navoiyga bo'lgan chuqur hurmatini ifodalaydi. She'rda Alisher Navoiy nafaqat adabiyot olamining buyuk siyoshi, balki uning xalq va vatan uchun qilgan xizmatlari, ajdodlarining merosini qadrlashdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Navoiyning ijodi va uning vataniga sadoqati ta'kidlanadi. Shoир she'rda bir qator simvolizm va tasvirlardan foydalangan:

"Yuksak tog' oralab o'kirgan sher" — Alisher Navoiyni buyuk va mustahkam, o'z fikriga sodiq shaxs sifatida tasvirlash sifatida qo'llanilgan.

"Temurning davlatin so'nggi chog'ida" — Navoiyning mustahkam pozitsiyasi va uning yuksak fikrlari temuriylar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatadi.

"Besh yil yangradi tog'day Vatanda" — Navoiy ijodining abadiyligi, uning ta'siri nafaqat o'z zamonida, balki uzoq kelajakda ham saqlanadi.

¹ Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. Toshkent. 1982.-B.39.

"Alisher" she'ri, shubhasiz, G'afur G'ulomning Navoiyga bo'lган chuqr hurmatini aks ettiradi.

G'afur G'ulom ijodi xalqchil bo'lib, uning deyarli barcha asarlari xalq hayotidan olingan. U xalq tilida yozgan, oddiy insonlarning tuyg'ularini, orzu umidlarini, dardini o'z she'rlariga mujassamlashtirgan. Bu esa uni xalq orasida mashhur qilgan.

XULOSA

So'z oxirida shuni aytishim mumkinki, Uning estetik ideali chuqr insonparvarlikka asoslanib, nasriy asarlarida G'.G'ulomning insonparvarlikka asoslangan estetik ideali, haqiqatga sadoqati, xalqqa hurmati, mehr-shafqati, yetimparvarligi o'z ifodasini topadi. Ommaga ilm nurini taratdi va bizning tariximizda o'chmas iz qoldirdi desak bo'ladi. G'afur G'ulom umrining oxirigacha ijod va mehnat bilan band bo'ldi. U uzoq yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishladi. U nafaqat badiiy asarlar yaratdi, balki ilmiy maqolalar yozdi va tarjimalar bilan ham shug'ullandi. Uning asarları dunyoning turli tillariga tarjima qilindi. Mehnati evaziga O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi. U «O'zbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor bo'ldi. Shuningdek, uning ijodiy merosi sifatida o'n ikki jilddan iborat to'plam nashr etildi. G'afur G'ulom nafaqat adib, shoir, bir qancha dunyoga mashhur asar muallif, yozuvchi sifatida o'zbek adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri bo'lib qoldi. O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, bir so'z bilan aytganda umrini adabiyotga bag'ishlagan ulkan so'z san'atkori G'afur G'ulom 1966-yil 10-iyulda Toshkentda vafot etadi. G'afur G'ulom bobomizning nomlari dilimizda va tilimizda mangu va barhayotdir!

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. Toshkent. 1982.-B.39.
- 2 Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002.